



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th February, 2025

O‘ZBEKISTONDA TUPROQA UYA QURUVCHI QUSHLARNING TARQALISHI

Botirali Shodiyev,

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati

Fotima Shodiyeva,

O‘zbekiston Milliy universiteti Ekologiya kafedrası doktoranti

O‘zbekistonda Coraciiformes turkumiga mansub 4 ta tur uchraydi. Adabiyotlarda ularning uchrash xususiyatlari, tarqalishi va soniga tegishli materiallar o‘tgan asrning 60 yillarigacha bo‘lgan muddatda yig‘ilgan bo‘lib, ancha eskirgan va ular bugungi kunda amaliyotda foydalanish imkonini bermaydi. Oxirgi yillarda mazkur turlarning yashash muhitlariga bo‘layotgan turli ta’sirlar ularning regionda tarqalishi va soniga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Turlarning tarqalish xususiyatlari va sonida bo‘layotgan o‘zgarishlarni aniqlash ularni muhofaza qilish yo‘nalishidagi chora-tadbirlarini belgilash, turlarning evolyusiyasida bo‘layotgan adaptiv moslanishlarning yo‘nalishlarini aniqlash imkonini berishi bilan dolzarbdir.

Mavzuga tegishli materialar 2024 yillarda Toshkent, Buxoro, Samarqand va Navoiy viloyatlaridan yig‘ildi. Materiallarni yig‘ishda ekologik va zoologik va Tadqiqot davomida vizual kuzatish, qushlarning hisobini o‘tkazish uslublaridan foydalanildi. Qushlarning sanog‘i bo‘yicha hisob ishlari sanoq o‘tkazishdan ko‘zlangan maqsad va sanoq o‘tkaziladigan joyning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, marshrutda hisobga olish va nuqtali hisobga olish uslublari asosida bajarildi. Qushlarni hisobga olish bo‘yicha yig‘ilgan materiallarning natijalari N.G Chelinsev, 1985 tomonidan taklif qilingan quyidagi formula bo‘yicha bajarildi

$$D=n/L \times W;$$

Bunda D – zichlik; n –hisobga olingan qushlar soni; L – marshrut uzunligi; W – marshrut eni yoki marshrut o‘qidan hisob olib borilgan yo‘lakning chegarasigacha bo‘lgan masofa.

Adabiyotlarda turlarning tarqalish xususiyatlari va yashash muhitlari sifatida keltirilgan joylarni O‘zbekistondagi shunday joylar bilan qiyosiy tahlil qilganda,



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th February, 2025

ba'zan ularning o'zaro nomuvofiqligi namoyon bo'ladi [9,10,11,12]. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, har qanday turning turli populyasiyalari tomonidan yashash muhiti sifatida tanlangan biotoplar ushbu turning tarqalish arealini turli qismlarida turlicha bo'lishi mumkin. Ayniqsa, bahorgi va kuzgi migrasiyalar davrida va ba'zan ko'payish davrida *M. apiaster* va *M. persicus* ning sporodik tarqalishi va populyasiyalarining aralash jamoalar hosil qilishi kuzatiladi. Ushbu holat har ikkala turlarning respublikamizdagi tarqalish areallari to'g'risida yakuniy xulosa chiqarishni murakkablashtiradi. Bu vaziyat bahorgi migrasiya davrida har ikkala turning respublikamiz hududiga janubdan kirib kelishi va kuzgi migrasiyaning teskari yo'nalishda sodir bo'lishi, global iqlim o'zgarishi bilan bog'liq holda *M. persicus* ning ko'payish arealining tog' va tog' oldi zonalari, *M. apiaster* arealining esa yanada shimolga tomon siljishi bilan izohlanadi. Ilmiy manbalarda turlarning sinantropizasiyalashuvi, urbanizasiyalashgan hududlarda antropogen omillarga moslashuvi va global iqlimiy o'zgarishlar natijasida ularning tarqalish areallarining o'zgarishi, migrasiya va ko'payish muddatlarining siljishi qayd etiladi [1,2,3,]. Jumladan, ko'k qarg'aning Markaziy Osiyoda kuzgi migrasiyasining boshlanish va tugashi muddatlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, kuzgi migrasiya juda uzoq davom etadi. Alohida vakillarning juda kechki muddatlarda qayd etilishi ham yuqorida qayd etilganidek iqlimiy omillar, ya'ni oxirgi yillarda global issiqlik va cho'llashish kabi omillar hamda ayrim populyasiya vakillarini migrasiya uchun etarli energetik zaxirani yig'a olmaganligi bilan bog'liq. Bu hodisa qushlarda migrasiya oldidan sodir bo'ladigan giperfagiya va gipogenez jarayonlari bilan ham izohlanish mumkin. Qanday bo'lishidan qat'iy nazar, ko'k qarg'alar o'zlarining reproduktiv sikllari kechgan joylarda sentyabr oyining boshlaridan boshlab juda kamdan-kam hollarda va kam sonda uchraydi. Bu vaziyatni ularning uyalash maskanlarida ozuqa resurslarining kamayib ketganligi va migrasiya uchun etarli energetik resurslarni topish uchun boshqa joylarga mahalliy tarzda ko'chishlari bilan isbotlash mumkin. Jumladan, 2024 yil 1 sentyabr kuni Toshkent viloyatining Yangiyo'l tumani va 2 sentyabrda Zangiota tumanida ko'k qarg'alar uya qurgan stasiyalarda ularning uchrashi qayd etilmadi. Ta'kidlash lozimki,



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th February, 2025

mazkur turlarning tarqalishida zonallilik prinsipining amal qilishi ma'lum darajada o'z ahamiyatini yo'qotib bormoqda.

ADABIYOTLAR

1. Балдаев Х.В., Попов А.В. О распространении и экологии золотистой щурки в республике Марий Эл // Актуальные проблемы изучения и охраны птиц Восточной Европы и Северной Азии. – Казань, 2001. – С. 64-65.
2. Бутьев В.Т. и др. Птицы России и сопредельных регионов. Ракшеобразные. Товарищество научных изданий КМК. Москва, 2005- С. 242-267.
3. Вилков Е.В. Особенности экологии щурок (*Merops apiaster*, *M. superciliosus*) в Дагестане, как районе интенсивных миграций // Юг России: экология, развитие. – Том 11, № 3, 2016. – С. 90-105.
4. Гулгенов С. Ж. Эколого-фаунистический анализ сообществ птиц сельских населенных пунктов Байкальской Сибири: Автореф. дисс. ... канд. биол.наук. Улан-Удэ, –2007.– 19 с.
5. Захидов Т.З. и др. Природа и животный мир Средней Азии. Т.2. – Ташкент: Ўқитувчи, 1971. – С. 274.